

JAHON TILSHUNOSLIGIDA EMOJI VA UNING LINGVOPRAGMATIK TABIATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI

Choriyeva Charos Salomovna,

Termiz davlat universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti

G-mail: choriyevacharos94@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda olamning lisoniy va konseptual manzarasini tadqiq etishda raqamli diskursning o'ziga xos birligi sanaluvchi emojilar milliy-madaniy hamda etnolingvistik jihatdan muhim pragmatik funksiyalarni bajarishi masalasi dunyo tilshunos olimlarining e'tibor markazida turibdi. Mazkur maqolada virtual aloqa tizimida emojilarning kommunikativ samaradorlikni oshirishdagi o'rni, affektiv (hissiy) hamda psixolingvistik holatlarni vizuallashtirish singari lingvopragmatik jihatlari jahon tilshunosligida shu kunga qadar shakllangan nazariy qarashlar misolida tahlilga tortildi.

Kalit so'zlar: raqamli diskurs, emoji, ideogramma, piktogramma, paratil, lingvopragmatika, milliy-madaniy kod.

Аннотация. В современных лингвистических исследованиях в центре внимания мировых лингвистов находится вопрос о том, выполняют ли эмодзи, рассматриваемые как уникальная единица цифрового дискурса в изучении лингвистического и концептуального ландшафта мира, важные прагматические функции с точки зрения национальных, культурных и этнолингвистических аспектов. В данной статье анализируется роль эмодзи в повышении эффективности коммуникации в виртуальной системе общения, например, в визуализации аффективных (эмоциональных) и психолингвистических состояний, на примере теоретических взглядов, сформировавшихся к настоящему времени в мировой лингвистике.

Ключевые слова: цифровой дискурс, эмодзи, идеограмма, пиктограмма, паралингвистика, лингвопрагматика, национально-культурный код.

Abstract. In modern linguistic research, the issue of whether emojis, which are considered a unique unit of digital discourse in the study of the linguistic and conceptual landscape of the world, perform important pragmatic functions in terms of national, cultural and ethnolinguistic aspects, is at the center of attention of world linguists. In this article, the role of emojis in increasing communicative efficiency in the virtual communication system, such as the visualization of affective (emotional) and psycholinguistic states, is analyzed using the example of theoretical views that have been formed in world linguistics to date.

Keywords: digital discourse, emoji, ideogram, pictogram, paralanguage, linguopragmatics, national-cultural code.

Kirish. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan global taraqqiyot hamda raqamli inqilob sharoitida yashar ekan zamonaviy aloqa vositalaridan foydalanayotgan deyarli barcha insonlar yozma muloqot jarayonida ideogramma va piktogrammalardan faol ravishda foydalanadi. Mazkur belgilar esa to'liqligicha emoji va grafik belgilarda mujassam. Zamonaviy muloqot jarayonida ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari orasidagi muloqotning zaruriy tarkibiy qismiga aylangan emojilar nutqni to'ldiruvchi, boyituvchi, unga emotsional ma'no yuklovchi muhim birliklar vazifasini bajarmoqda. Ushbu belgilersiz ham bemalol yozma ravishda fikr ifodalanishi mumkin, ammo hissiy ma'no yo'qoladi va matn uslubiy betaraf bo'lib qoladi. Emojilar yordamida fikr bildirilganda esa axborot uni qabul qiluvchiga hissiy jihatdan to'liq va ixcham shaklda yetib boradi. Statistik

ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda dunyo aholisining 92% dan ortiq qismi yozma muloqotda matn ma'nosiga mos holda turli ko'rinishdagi emojilardan foydalanishadi.

Raqamli sivilizatsiya va axborot texnologiyalari taraqqiyotining mahsuli bo'lgan emojilar zamonaviy elektron muloqotning asosiy hodisalaridan biridir. Ushbu vizual belgilar virtual muloqot tizimiga nisbatan yaqin davrda kirib kelgan bo'lsa-da, qisqa fursatda turli yosh va ijtimoiy qatlarga mansub gadjet foydalanuvchilarining keng doirasi orasida mashhur bo'lib ulgurdi. Ushbu jarayonning global xarakter kasb etganini statistik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi xususan, Instagram ijtimoiy tarmog'ining 2015-yil mart oyida ushbu tarmoqda yuborilgan xabarlarining deyarli 50% qismi emojilarni o'z ichiga qamrab olganini ko'rsatadi.

Raqamli diskursdagi ushbu birlikning ko'lami universal madaniy va global miqyosda ham o'z tasdig'ini topmoqda. Xususan, global lingvistik tendensiyalarni monitoring qilib boruvchi nufuzli Oksford lug'ati (Oxford English Dictionary) tarkibida lingvistik pretsedent qayd etildi: 2015-yilda an'anaviy leksik birliklar o'rniga, tarixda ilk bor grafik tasvir — "quvonch ko'z yoshlari bilan tabassum qiluvchi yuz" emoji "Yil so'zi" deb e'lon qilindi. Bu voqea esa haqiqiy ma'noda vizual belgilarning an'anaviy yozma til bilan raqobatlasha olish salohiyatiga ega ekanligini rasman tasdiqladi.

Bundan tashqari, ushbu raqamli fenomenning ijtimoiy hayotga chuqur singganligining yana bir sotsiomadaniy isboti sifatida butun dunyoda har yili 17-iyul sanasining norasmiy ravishda "Butunjahon emoji kuni" (*World Emoji Day*) sifatida nishonlanishini ham keltirish mumkin. Ushbu dalillar emojilarning shunchaki pragmatik jihatdan yordamchi element emas, balki tilshunoslik, sotsiolingvistika va madaniyatshunoslik chorrahasida tadqiq qilinuvchi tizimli ravishda tadqiq etishni talab qiluvchi global ijtimoiy-madaniy va lingvistik birlik ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunos olimlarining e'tirof etishicha, "emoji" atamasini turli nuqtai nazardan yondashib izohlash mumkin. Aksariyat ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari ularni so'z boyligini bitta belgi yoki tasvir bilan almashtirish imkonini beruvchi aloqa vositasi sifatida ko'rishsa, sotsiologlar va tilshunoslar tomonidan tuzilgan akademik hamjamiyat vakillari esa bu atamani og'zaki bo'lmagan semantik konstruksiyalarni yaratish va insoniy muloqotda siyosiy, mafkuraviy yoki boshqa yashirin kontekstlarni aks ettirish imkonini beruvchi texnologiya sifatida izohlash mumkinligi g'oyasini ilgari suradilar. [1.144] Olimlar emojilarni insoniyatning tafakkuri mahsuli ekanligini inkor etmagan holda, ularning tub ildizi ibtidoiy davr odamlari tomonidan toshlarga, g'orlarga chizilgan piktografik yozuvning hozirgi davrdagi zamonaviy ko'rinishi ekanligini e'tirof etadilar.

Emojilar zamonaviy muloqotning ajralmas qismi bo'lib, tilshunos V.Evans unga "imo-ishoralar, yuz ifodalari yoki intonatsiya bizga yuzma-yuz muloqotda yordam berganidek yordam beradigan paratil", – deya izoh beradi. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, Har kuni dunyo aholisining taxminan to'rttdan bir qismi tomonidan 6 million

emoji yordamida 41,5 milliard atrofida turli ko‘rinishdagi SMS yuboriladi. Evansning ta’kidlashicha, bu belgilar bizning muloqot qilish qobiliyatimizni boyitadi va bizga his-tuyg‘ularimizni ifoda etish va hamdardlikni uyg‘otishga imkon beradi - oxir-oqibat bizni yaxshiroq muloqotchilarga aylantiradi. Emojilar yozma xabarda og‘zaki bo‘lmagan konteksts yaratadi hamda ma’lum bir auditoriya uchun xabarning hissiy ma’nolarini matn sifatida ochishga xizmat qiladi. Og‘zaki bo‘lmagan kontekstlarning muloqotdagi ahamiyati tadqiqotchilar tomonidan turli xil tajribalar yordamida o‘rganilgan. Jumladan, 1950-yillarda psixolog Albert Meyerabian muloqotda ma’lumotlarning atigi 7%i og‘zaki, 38%i ovoz orqali, 55% qismi esa og‘zaki bo‘lmagan ishoralar orqali uzatilishini” aniqlagan. Demak, imo-ishoralar va yuz ifodalari yordamida ifodalanuvchi his-tuyg‘ularimiz muloqot uchun sezilarli darajada muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda emojilarning kontekstdagi qo‘llanish maqsadini va muloqot jarayonidagi ta’sir kuchini o‘rganish maqsadida lingvopragmatik tahlil metodidan, emojilarning ma’no nozikliklarini anglagan holda qo‘llash uchun xizmat qiluvchi semiotik tahlil metodi hamda emojilarning milliy-madaniy jihatdan madaniyatlararo muloqotda o‘xshash va farqli jihatlarini taqqoslash uchun qiyosiy-kontrastiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Emojilar tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ular o‘zining qiziqarli va bosqichma-bosqich rivojlanish yo‘liga ega bo‘lib, zamonaviy texnologiya va kommunikatsiya vositalarining bir qismi sifatida shakllanganligining guvohi bo‘lamiz. 1970-yillarda smayliklarning birinchi ko‘rinishi yuzaga keldi. 😊 😄 Belgilardan foydalanib kulayotgan yuz (masalan, :-) yoki :-(kabi) ilk marta kompyuter foydalanuvchilari orasida his-tuyg‘ularni ifodalash uchun ishlatilgan. Keyinchalik 1982-yilda Carnegie Mellon universiteti professori Skott Falman o‘z e’lonlar doskasida xabarlarda hazilni ifodalash uchun :-) va :-(kabi xursandlik va xafa holatni ifodalovchi belgilardan foydalanishni taklif qilgan.

Emoji so‘zining lug‘aviy ma’nosiga to‘xtaladigan bo‘lsak, “Emodzi” (yoki inglizcha “emoji”) so‘zi yapon tilidagi : 絵文字, ya’ni 絵 —rasm va 文字 — belgi so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “rasmi belgi” ma’nosini anglatadi. Dastlabki rasmiy emojilar 1999-yilda Yaponiyada Shigetaka Kurita tomonidan yaratilgan bo‘lib, u uyali telefonlardagi aloqani soddalashtirish uchun emoji belgilarini ixtiro qilgan. Mazkur emojilar to‘plamida jami 176 ta emoji mavjud bo‘lib, ular 12×12 pikselli panjaraga sig‘adi va bugungi kundagi emojilarning umumiy ko‘rinishidan sezilarli darajada farq qiladi. Bugungi kunda emojilarning yangi zamonaviy turlarini yaratish ustida izlanishlar amalga oshirilayotgan bir vaqtda, mavjud 4 mingga yaqin emoji turlaridan faqatgina 100 tasi juda faol qo‘llanayotgani ajablanarlidir.

Raqamli aloqa tizimida muloqotning faqat emojilardan iborat bo‘lishi mumkinligini isbotlashga uringan avstraliyalik mashhur siyosatchi Julie Bishop tomonidan 2016-yilda o‘tkazilgan eksperimentda Bishop intervyu oluvchining har bir savoliga faqat smartfon klaviaturasidagi belgilar yordamida javob berdi. Mazkur tajribaga asoslanib, bir

qaraganimizda faqat emojilardan foydalangan holda ham muloqot qilish mumkin ekan, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Biroq, J.Bishopga berilgan savollar emojilardan emas, balki to'liq gaplardan iborat edi. U faqatgina javoblarda emojilardan foydalangan, xolos. Ushbu javoblar uchun unga berilgan savollar asos vazifasini o'tagan. Demak, virtual makonning muhim elementi sanaluvchi emojilar muloqotning samarali bo'lishiga muhim hissa qo'shsa-da, biroq so'z va jumalarning o'rnini mutlaqo egallay olmaydi.

Taniqli tilshunos T. Shnoebelen virtual muloqot evolutsiyasini baholar ekan, insoniyat mutlaqo yangi turdagi lisoniy makon chorrahasida turganini ta'kidlaydi. Olimning qarashlariga ko'ra, emojilar shunchaki piktografik belgilar majmui bo'lmay, balki raqamli muloqotda lisoniy shaxsning ichki ruhiy-ma'naviy va affektiv holatini verbal bo'lmagan (nonverbal) elementlar orqali vizuallashtiruvchi universal kompensatorlik tizimidir. [13.116] Bizningcha, Shnoebelen nazarda tutgan "yangi til" — bu an'anaviy yozuvning qat'iy qoliplari bilan og'zaki nutqqa xos bo'lgan lisoniy dinamizm va mimik vositalarning sintezidan iborat bo'lgan gibriddiskursiv hodisadir. Emojilar raqamli matnlarga lisoniy tana tilini olib kirish orqali muloqotning ma'naviy va pragmatik kontekstini boyitishga xizmat qilmoqda.

Emojilarning global muloqot tizimidagi o'rnini baholashda ularni mutloq universal til sifatida qabul qilish ilmiy jihatdan bahslidir. Xususan, E.M.Nikolayeva va E.A.Dyukina kabi tadqiqotchilar emojilarning individuallashtirilgan semantik xarakterga ega ramzlar ekanligini, zero ularning denotativ va konnotativ ma'nolari o'rtasida qat'iy ijtimoiy konvensiya mavjud emasligini ta'kidlaydilar. Ushbu kontekstual variativlikni 🙏 (qo'llarni jipslashtirish) emoji misolida yaqqol ko'rish mumkin: u bir guruh foydalanuvchilar tomonidan minnatdorchilik belgisi sifatida qo'llanilsa, boshqa ijtimoiy-madaniy guruhlarda diniy ibodatning sof grafik tabiati sifatida izohlanadi. Bundan tashqari, raqamli diskursda emojilarning hissiy intensivlik darajasida gradatsiya hodisasi kuzatiladi. Masalan, standart tabassum emoji (😊 / 😊) bir guruh foydalanuvchilar uchun an'anaviy xushmuomalalik ramzini ifodalasa, boshqa segmentda kulgi yoki yashirin ijobiy munosabatni anglatuvchi belgi sifatida qo'llanadi. Darhaqiqat, raqamli xabarlarda emojilarning tarqalish xususiyatlariga tayanib, lisoniy shaxsning psixologik portretini modellashtirish imkoniyati mavjudligi bugungi psixolingvistikaning muhim yutuqlaridan biridir.

A.Shapovalovning konseptual qarashlariga ko'ra, emojilar til tizimini ramzlar orqali qayta modifikatsiyalovchi raqamli piktografiya namunasidir. Muallif ushbu vizual hodisaning genezisini qadimgi iyeroglif va piktogrammalar bilan bog'lab, uning elektron aloqada kinetik hamda mimik vositalar rolini o'tashini haqli ravishda e'tirof etadi.[6.879] A. Shapovalovning ushbu fikri emojilarning lisoniy tabiatiga ham diaxronik, ham sinxronik tomondan yondashilgani bilan nihoyatda qimmatlidir. Olima bu yerda juda muhim g'oya — raqamli davr piktografiyasi va insoniyat sivilizatsiyasining ibtidoiy yozuv tizimlari o'rtasidagi tipologik o'xshashlik g'oyasini ilgari surmoqda.

Raqamli diskurs tadqiqotchisi P. Shamilov ham emojilarni til tizimini virtual makonda simvollar orqali kodlashtiruvchi universal vosita sifatida baholash mumkinligi g'oyasini ilgari suradi. O'z navbatida, E.B. Kitova ushbu fenomenning evolutsion bosqichlarini tahlil qilar ekan, emotikon (matnli belgilar tizimi) va emojining (tayyor grafik tasvirlar) funksional tabiatini bir xil darajadagi lisoniy hodisa sifatida o'rganish mumkinligini e'tirof etadi. Ammo ularni aynan bitta hodisa sifatida o'rganish xato, nazarimizda. Negaki emotikonlar — tipografik belgilar (matnli simvollar: :-) , :-() yordamida yaratilgan chiziqli tasvirlar bo'lsa, emoji — Unicode tizimiga kiritilgan tayyor grafik obyektlardir. Demak, emojilarni emotikonlarning semantik va texnologik jihatdan mukammallashgan keyingi avlodi sifatida baholashimiz mumkin bo'ladi.

Xitoy tili misolida emojilarni virtual dunyoning lingvistik tasvirini shakllantirishda lingvokulturologik birlik sifatida o'rgangan M.Dubinina emojining fenomen sifatida axborot hamjamiyatining tili, matn dizaynining paragrafik vositasi, tushunchalarni noverbal ifodalash vositasi, shuningdek, raqamli muloqotning o'ziga xos kodi singari turli maqomlarga ega ekanligini e'tirof etadi.

T. Hoffman emojilardan foydalanish zaruratining yuzaga kelishi to'g'risida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Online muloqotda suhbatdoshimiz bilan bir-birimizni ko'rmasdan turib matn orqali muloqot qilganimizda tabiiy ravishda o'zimizni to'ldirishga ehtiyoj sezamiz, imo-ishoralar bilan kodlangan ma'lumotlarni ifodalash uchun qo'shimcha materiallar pozitsiyasi (emojilardan) foydalanamiz".[10.43]

M. R. Nashxoyeva emojilarni shunchaki hissiyot belgilari emas, balki tarkibiy jihatdan murakkab va o'zgaruvchan lingvistik tizim sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha

emoji dinamik semiotik kategoriyadir. Emojilarning semantikasi o'zgaruvchan va kommunikativ jihatdan o'zgartirilishi mumkin: emojilar ma'no nuanslarini olishi va yo'qotishi mumkin.[12.321] Zamonaviy tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, emojilar shunchaki "qotib qolgan" belgilar tizimi emas, balki xuddi an'anaviy tillar singari muttasil ravishda o'zgarishda, kontekstga bog'liq ravishda semantik jihatdan boyishda davom etadi.

Bizningcha, Nashxoyeva ta'kidlagan emojilar semantikasining o'zgaruvchanligi va kommunikativ transformatsiyaga moyilligi, ushbu vizual birliklarning jonli tabiiy tillar kabi lisoniy evolutsiyaga uchrashini ko'rsatadi. Raqamli diskursda emojilar kontekstual ehtiyojga ko'ra yangi semantik ma'nolarni qabul qilishi yoki mavjud konnotativ ma'nolarini yo'qotishi mumkin. Binobarin, internet makonida ham global emojilarning milliy-kontekstual transformatsiyaga uchrashini va ularning semantik siljish dinamikasini tahlil qilib borish tilshunoslik oldida turgan muhim tadqiqotlardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Raqamli texnologiyalar orqali muloqotning shiddatli taraqqiyoti jahon tilshunosligi oldiga olamning lisoniy va konseptual manzarasini yangicha paradigmalarda tadqiq etish vazifasini qo'ydi. Zamonaviy virtual diskursning ajralmas qismiga aylangan emojilar shunchaki vizual-dekorativ elementlar bo'libgina qolmasdan, balki chuqur

lingvopragmatik tabiatga ega bo'lgan lisoniy hodisadir. Mazkur maqolada jahon tilshunosligida shakllangan nazariy qarashlarni tizimli tahlil qilish natijasida bir qator ilmiy xulosalarga kelindi hamda shaxsiy munosabat bildirildi. Xulosa qilib aytganda, emojilarning lingvopragmatik tabiatini o'rganish raqamli dunyoda inson tafakkuri va tilining taraqqiyot bosqichlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Решетняк, Е. А. Феномен эмодзи и его влияние на язык общения в социальных сетях / Е. А. Решетняк. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 10 (352). — С. 144-146. — URL: <https://moluch.ru/archive/352/79032>.
2. Кудрявцева Маргарита. За смайл ответишь. Режим доступа: https://www.dp.ru/a/2016/12/15/Za_smajl_otvetish_kak_jem (Дата обращения 03.04.2020);
3. Evans V. The Emoji Code: The Linguistics Behind Smiley Faces and Scaredy Cats. Picador. London: Michael O'Mara Books. 2017
4. Природа эмодзи (emodji), или как социальные сети меняют наше общение? [Электронный ресурс].— Режим доступа: <https://lpgenerator.ru/blog/2016/02/18/prirodaemodzi-emodji-ili-kak-socialnye-seti-menyayut-nashe-obshenie/>. — Заглавие с экрана. — (Дата обращения 10.03.2019).
5. Эмодзи как феномен цифровой коммуникации XXI века Ускова Анна Игоревна <https://www.alba-translating.ru/ru/ru/articles/2019/uskova-2019.html>
6. Николаева Е. М.; Дюкина Э. А.. Цифровизация языка в условиях «вынужденной» многозадачности: проблема идентификации. ВЕСТНИК ЧЕЛЯБИНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА, [S.l.], n. 2(448), p. 38-44, June 2022. ISSN 2782-4829. Доступно на: <https://journals.csu.ru/index.php/BulletinCSU/article/view/1174>>. Дата доступа: 16 apr. 2026 doi: <https://doi.org/10.47475/1994-2796-2021-10206>.
7. Шаповалова А. И. Исследование роли эмоджи в онлайн-сообществе // Научно-технический вестник информационных технологий, механики и оптики. 2018. Т. 18. № 5. С. 878–886.
8. Китова Е. Б. Общение в интернет-среде и «универсальный язык» эмодзи // Вопросы теории и практики журналистики. — 2016. — Т. 5, № 4. — С. 654–664. — DOI: 10.17150/2308-6203.2016.5(4).654-664.
9. Кожина Р.В. Эмодзи как часть современной коммуникации // XX Юбилейная всероссийская научно-практическая конференция молодых ученых, аспирантов и студентов: материалы конференции. 2019. – С. 123-124.
10. Hoffman T. Multimodal construction grammar: from multimodal constructions to multimodal constructions. – New York., 2020. – 43 p.
11. Васильева И.А., Халина Н.В. Эмодзи как дополнительный семантико-семиотический компонент современного SMM-текста//PRPIMPA. 2021. №25. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/emodzi-kak-dopolnitelnyysemantiko-semioticheskiy-komponent-sovremennogo-smm-teksta> (дата обращения: 17.03.2026).
12. Нашхоева М. Р. Взаимодействие пунктуационных знаков и эмотиконов в текстах форумов // Вестник ЧГПУ. Филология и искусствоведение. 2011. С. 321–327
13. Schnoebelen T. Do you smile with your nose? Sty listic variation in Twitter emoticons. University of Pennsylvania Working Papers in Linguistics, 2012, vol. 8, iss. 2, pp. 116–125.